

bo’yicha jami bank xizmatlarini amalga oshiruvchi bank kartalari soni keltitib o’tilgan.

Shuni aytish kerakki, bank xizmatlarini ko’rsatuvchi respublikada o’rnatilgan terminallar orqali to’lov , oldi –sotdi va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish mumkin bo’ladi. Quyida keltigan ma’lumot xizmatlar xajmini umumiy tariflaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilsak, mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko’rsatkichlariga erishishning ustuvor yo’nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo’yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko’rsatilayotgan xizmatlar sifati, to’lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko’tarilishini ta’minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

#### **Adabiyotlar ro’yxati:**

1.S.Shoraxmatov *Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish mavzusidagi Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan d i s s e r t a t s i y a* ishi.

2 D. Nosirova . *Tijorat banklarida zamonaviy bank xizmatlarini ko’rsatishning ahamiyati. "Science May 2023 and / Volume Education" 4 Issue Scientific 5 Journal / Impact Factor 3.848*

3. Hidayqulov .H *Bank va bank tizimining tarixi va rivojlanishi. JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57]*

4. [WWW.cbu.uz](http://WWW.cbu.uz) *Markaziy bank rasmiy sayti ma’lumotlari*

### **MILLIY VALYUTA BARQARORLIGIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR VA INFLATSION TARGETLASHNING PUL BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI**

**Shamansurova Zilola Abduvaxitovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Moliya kafedrasida dotsent*

**O’rinboyev Ulug’bek Otabekovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti*

*magistratura talabasi*

Tarixdan ma’lumki davlat paydo bo’lar ekan albatta har bir paydo bo’lgan davlatning o’z milliy ramzlarini ham yaratishgan. Bu ramzlar asosan bayroqlar bo’lib, bu bayroq davlatning mavjudligini bildirgan. Asta sekin dehonchilik rivojlanib davlatlar bir birlari bilan savdo sotiq ishlarini boshlagandan keyin ular o’rtasida ayirboshlash vositasi pul muomilaga kiritila boshlagan. Asrlar davomida vaxt o’tishi bilan ilm fan rivojlanishi orqasidan deyarli hamma sohada yangiliklar ro’y berdi. Bu esa albatta davlat o’rtasida bo’ladigan savdo sotiqqa ham ijobiy ta’sir qildi. Sizga ma’lumki rivojlanish davrida valyutalarning ham turi ko’payib

davlatlar savdo sotiq aloqalariga kirishganda bir mamlakatning pul birligiga boshqa davlatning pul birligi to‘g‘ri kelmay, turli hil tafovutlar vujudga kela boshladi va bu albatta mamlakatlarning savdo sotiq ishlariga to‘siq bo‘la boshladi. Vaqtlar o‘tishi bilan o‘zaro savdo sotiq ishlariga kirishadigan davlatlar turli hil kelishuvlarga erishib savdo sotiq ishlarini yengillashtirishga urinishdi va bu kelishuvlarga boshqa davlatlar ham qo‘shilib hozirgi kundagi dunyo valyutasi vujudga keldi. Hozirgi kundagi sharoitdan kelib chiqadigan bo‘lsak davlat o‘rtasida savdo sotiq ishlarini olib borish juda oson bo‘lib qoldi. Endilikda davlatlar o‘zining milliy valyutasining qadrini ko‘tarib savdo sotiq ishlarida o‘z valyutasidan foydalanish uchun harakat qilishmoqda. Buning uchun albatta turli hil strategiyalardan foydalanilib kelinmoqda. Chunki hozirgi kunda qaysi bir davlatning milliy valyutasidan boshqa bir davlat tashqi va ichki savdoda foydalanadigan bo‘lsa, milliy valyutasidan foydalanilayotgan davlatning iqtisodiyoti barqaror, valyutasi esa erkin konvertatsiyalanuvchi va bozorda erkin harakatlanuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin bunday valyutaga ega bo‘lgan davlatlar dunyo miqyosida barmoq bilan sanaladi. Buning sababi juda ko‘p. Biz hozir ma‘lum bir davlatning valyutasi barqaror bo‘lishi uchun valyuta kursiga ta‘sir qiluvchi omillar va milliy valyuta barqarorligini saqlash uchun dunyo mamlakatlari foydalangan “inflatsion targetlash” rejimining amalga oshirish orqali milliy valyutasining barqarorligini ta‘minlagan davlatlar tajribasi bilan ta‘nishib o‘tamiz.

Asosan har bir mamlakat o‘z milliy valyutasini barqarorligini ta‘minlash uchun turli xil strategiyalardan foydalanishadi. Dunyo iqtisodchi olimlarining ta‘kidlashicha hozirgi kunda ma‘lum bir mamlakatning milliy valyutasining kursiga ta‘sir qiluvchi omillar ikki xil bo‘lib, ssbular asosiy va tashqi omillarga bo‘linadi.

Asosiy omil o‘z ichiga Markaziy bank tomonidan belgilanadigan asosiy foiz stavkasini, inflatsiyani, milliy valyutaning likvidligini, mamlakat hududidagi ishlab chiqarish darajasi, mamlakat iqtisodiyotida investitsiyaning darajasini o‘z ichiga oladigan bo‘lsa, tashqi omilga import va eksport darajasi, banklarda valyutaning almashinuvchanligi, mamlakatdagi ijtimoiy hayotning holati, geologik joylashuvchanlikning xatarlari va qulayliklari, xalqaro valyuta bozordagi holat, milliy valyutaning ishonchliligi va neftning narxi ham valyutaning kursiga ta‘sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.<sup>61</sup> Neft narxi ham milliy valyutaning o‘zgarishiga anchagina katta ta‘sir qiladigan omillardan hisoblanadi, chunki neft narxi mamlakatlar byutjet daromadlarining asosiy qismi bo‘lgan xom ashyo eksportidan tushadigan daromadlardan iborat.

Milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlashda inflyatsion targetlash rejimiga keladigan bo‘lsak, bu pul – kredit siyosati rejimi hisoblanib, yakuniy maqsad narx barqarorligiga erishish hisoblanadi. Inflyatsion targetlash

<sup>61</sup> <https://riorpub.com/ru/nauka/article/44005/view>

rejiminimg tarixiga qaraydigan bo'lsak dastlab shved iqtisodchisi Knut Viksell <sup>62</sup> 1896-yil Shvetsiya iqtisodiy assotsiatsiyasining yig'ilishida narxlar darajasini barqarorlashtirishda ushbu rejimning o'rnini haqida fikr aytgan:

“ Agar narxlar ko'tarilsa, foiz stavkasini oshirish kerak; va agar narxlar tushib qolsa, foiz stavkasini kamaytirish kerak; va foiz stavkasi bundan keyin narxlarning o'zgarishi u yoki bu yo'nalishda keyingi o'zgarishlarni talab qilmaguncha yangi darajada saqlanishi kerak ”<sup>63</sup>

1989- yilga kelib Yangi Zelandiyada inflyatsion targetlash rejimi amaliyotda foydalanildi. Hozirgi kunga kelib dunyo bo'ylab 30 dan ortiq rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar pul – kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimidan foydanib kelishmoqda. Bizga qo'shni bo'lgan Qozog'iston Respublikasi ham 2015-yil 20-avgustdan Qozog'istonning Miliya banki inflyatsion targetlash rejimiga o'tish uchun dastlab milliy valyutasi tengega nisbatan belgilangan kursni bekor qildi va bu rejimni joriy qilish uchun bir nechta bosqichlarni bosib o'tdi. Qozog'iston Respublikasida inflyatsion targetlash rejimiga o'tishning asosiy sabablaridan biri sifatida Markaziy bank tomonidan milliy valyutasining qat'iy belgilangan kursi global iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob bera olmadi, Markaziy bank tomonidan kiritilgan tuzatishlar esa milliy valyuta uchun belgilangan kurs ma'nosining yo'qolishiga olib keldi va valyuta harakatining pasayishi kuzatildi va valyuta barqarorligiga qo'shni davlatlar tomonidan sotib olinayotgan xom ashyolar juda past narxlar bilan sotib olindi bu esa Qozog'iston Respublikasi hududida inflyatsiyaning oshishiga olib keldi, Ikkinchi omil esa Qozog'iston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan maxsulotlar mamlakatda ishlab chiqarilgan maxsulotdan arzon bo'lishiga olib kelgan bu esa mamlakat bo'ylab ishlab chiqaruvchilarning haddan tashqari qisqarishiga olib keldi. 2014-2015 yillarda milliy valyuta – tengening qadrini ko'tarish uchun Qozog'iston Respublikasi hukumati tomonidan 28 mlrd dollar sarflangan.

Yurtimizda ham inflyatsion targetlash rejimiga o'tish uchun bosqichma bosqich harakat qilinmoqda. Hozirgi kunda yurtimiz iqtisodiyotida ham qo'shni Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotida kuzatilgan holatlar yuz beryabdi. Bu esa inflyatsion targetlash rejimiga o'tishni tezlashtirish va sifatli amalga oshirishda Markaziy bankning pul – kredit siyosatini to'g'ri shakllantirish uchun turtki bo'lyabdi. Yurtimizda pul – kredit siyosatini yanada takomillashtirish va inflyatsion targetlash rejimiga o'tish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 – yil 18 – noyabrdagi PF-5877 sonli “ Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma – bosqich o'tish orqali pul – kredit siyosatini takomillashtirish

<sup>62</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%92%D0%B8%D0%BA%D1%81%D0%B5%D0%BB%D0%BB%D1%8C.%D0%9A%D0%BD%D1%83%D1%82> Vikipediya dan olingan material

<sup>63</sup>

[https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BB%D1%8F%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B5%D1%82%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5#cite\\_note-1:~:text=Agar%20narxlar%20ko%27tarilsa%2C%20foiz%20stavkasini%20oshirish%20kerak%3B%20va%20agar%20narxlar%20tushib%20qolsa%2C%20foiz%20stavkasini%20kamaytirish%20kerak%3B%20va%20foiz%20stavkasi%20bundan%20keyin%20narxlarning%20o%27zgarishi%20u%20yoki%20bu%20yo%27nalishda%20keyingi%20o%27zgarishlarni%20talab%20qilmaguncha%20yangi%20darajada%20saqlanishi%20kerak](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BB%D1%8F%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B5%D1%82%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5#cite_note-1:~:text=Agar%20narxlar%20ko%27tarilsa%2C%20foiz%20stavkasini%20oshirish%20kerak%3B%20va%20agar%20narxlar%20tushib%20qolsa%2C%20foiz%20stavkasini%20kamaytirish%20kerak%3B%20va%20foiz%20stavkasi%20bundan%20keyin%20narxlarning%20o%27zgarishi%20u%20yoki%20bu%20yo%27nalishda%20keyingi%20o%27zgarishlarni%20talab%20qilmaguncha%20yangi%20darajada%20saqlanishi%20kerak) Shved iqtisodchisi Knut Viksell nutqidan

to’g’risida ” gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko’ra Markaziy bank inflyatsiyani paydo qiluvchi omillarning ro’lini bosqichma – bosqich pasaytirish, iqtisodiyotning real sektorida tarkibiy iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta’minlash va ichki bozorni iste’mol tovarlari bilan to’ldirish, 2021 – yil uchun inflyatsiya miqdorini 10 foizgacha pasaytirish, 2023 – yil 5 foiz darajasidagi inflyatsiyani ta’minlash yo’llarini joriy qilish va 2020 – yil 1- yanvardan boshlab mamlakatimizdagi pul- - kredit siyosati mexanizmlarini bosqichma bosqich inflyatsion targetlash rejimiga o’tkazishni ta’minlash kabi vazifalarni O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining zimmasiga yuklatildi. 2023 - yil 11 - sentyabrdagi PF-158 sonli O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O’zbekiston – 2023 ” strategiyasi to’g’risidagi Farmoni qabul qilindi. “ O’zbekiston – 2030 ” strategiyasiga ko’ra 2030 – yilga borib mamlakatimizda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhuitini ta’minlash, muvozanatlashgan pul - kredit siyosatini amalga oshirish, davlat qarzini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshmasligini ta’minlash, iqtisodiyotimizda yillik inflyatsiya miqdorini 5 – 6 foizdan oshmasligini ta’minlash, byutjet taqchilligini 2024 – yildan boshlab 4 foizdan va keying yillarda 3 foizdan past miqdorda bo’lishini ta’minlash uchun yangi islohotlar o’tkazish nazarda tutilgan.

O’rganishlarimiz natijasida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki milliy valyuta barqarorligini ta’minlash uchun bir nechta ta’sir qiluvchi omillar mavjud bo’lib asosan har bir davlatning Markaziy banki tomonidan bu omillar ta’siriga qarshi turli hil rejimlarni qo’llash orqali mamlakat hududida valyuta barqarorligiga erishish uchun harakat qilishadi. Hozirgi kunga kelib dunyo bo’ylab 30 dan ortiq davlat inflyatsion targetlash rejimiga o’tish orqali inflyatsiyani past darajasini ushlab turish va valyuta barqarorligiga ta’sir qiluvchi omilarni oldini olishga harakat qilishyabdi. Inflyatsion targetlash rejimiga o’tish orqali mamlakat hududida Markaziy bankning mustaqilligini talab qiladi, bu esa bank faoliyati shaffofligining oshishi, aholining inflyatsiya miqdorining past darajasini saqlanishiga hamda Markaziy bankka bo’lgan ishonchning mustahkamlanishiga olib keladi. Inflyatsion targetlash rejimini joriy qilish orqali mamlakat iqtisodiyotida keng miqyosda rivojlanishiga olib keladi. Dunyo mamlakatlari inflyatsion targetlash rejimini amaliyotga tadbiiq etish orqali har bir mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri turli hil bo’lgan bo’lishi mumkin, lekin rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotida valyuta barqarorligini saqlash va inflyatsiyani ma’lum darajasini ushlab turishda foydalanilgan asosiy rejim bo’lim foydalanilgan. Yurtimiz iqtisodiyotida ham inflyatsion targetlash rejimiga o’tish orqali iqtisodiyotimizda eng ko’lamli o’zgarishlar bo’ldi va Markaziy bankning mustaqilligiga va Markaziy bankning asosiy vazifasi valyuta lamshinuv kursining maqsadli darajasini ta’minlashga qaratilishi orqali ichki bozorlarda noqonuniy valyuta almashinuviga ishonchni yo’qolishiga olib keldi. Markaziy bankga nisbatan esa aholi tomonidan ishonchning ortishiga olib keldi va buning dalili sifatida hozirgi kunda aholi

tomonidan valyuta ayirboshlash uchun mamlakatimizdagi tijorat banklaridan foydalanayotganini ko’rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Valyutani tartibga solish to’g’risida” gi 2019-yil 22-oktyabrdagi O’RQ 573-sonli qarori
2. “Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o’tish orqali pul- kredit siyosatini takomillashtirish to’g’risida” PF-5877 sonli qaror
3. “O’ZBEKISTON — 2030” Strategiyasi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni
4. “Yangi O’zbekiston Strategiyasi” SH.M.Mirziyoyev Toshkent, O’zbekiston, 2021 464 b
5. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/> O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining elektron sahifasi
6. <https://lex.uz/> O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
7. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BB%D1%8F%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B5\\_%D1%82%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5#cite\\_note-1](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D0%BD%D1%84%D0%BB%D1%8F%D1%86%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%B5_%D1%82%D0%B0%D1%80%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D0%B5#cite_note-1) wikipedia elektron kutubxona
8. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/basics/72-inflation-targeting.htm> international monetary fund elektron sahifasi
9. <https://www.cnbc.com/2023/02/20/the-federal-reserves-2percent-inflation-targeting-policy-explained.html> CNBC journal elektron sahifasi
10. <https://informburo.kz/>
11. <https://riorpub.com/ru/nauka/article/44005/view>

### **O’ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTA BARQARORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI**

**Shamansurova Zilola Abduvaxitovna**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Moliya kafedrasida dotsent  
**O’rinboyev Ulug’bek Otabekovich**  
Toshkent davlat Iqtisodiyot unversiteti  
magistratura talabasi

Mamlakatimizda milliy valyuta barqarorligini ta’minlash orqali aholining is’temol quvvatini yanada oshirish, taklif qilinayotgan xizmatlardan foydalanish ko’rsatkichini ko’tarish va buning orqasidan mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishini, byutjet daromadliligini ta’minlash mumkin. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy o’sishini kafolatlaydi. Milliy valyuta barqarorligini ta’minlash tushunchasini o’rganishdan oldin biz milliy valyuta nima ekanligini tushunib o’tishimiz kerak.

Milliy valyuta bu - muayyan bir mamlakatning markaziy banki tomonidan chiqariladigan valyuta hisoblanib, bu valyuta orqali shu mamlakat hududida yashovchi aholiga ko’rsatilayotkan barcha xizmatlar uchun to’lovlar, aholi tomonidan to’lanilayotkan soliqlar, yig’imlar va boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi. Shuningdek faqat mamlakat hududida emas balki milliy valyutani